

**“Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga barcha ovoz beruvchi oddiy
aksiyalari Yagona aksiyadorining 4 - sonli
QARORI**

2025-yil 22-aprel

Toshkent shahri

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan “Hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatining chiqarilgan va joylashtirilgan ovoz beruvchi 84 618 347 341 dona oddiy ovoz beruvchi aksiyalarning yagona aksiyadori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi:

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosarini tayinlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiyligiga yig‘ilishi vakolat doirasiga kirishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-apreldagi 15/1-1262-sonli topshirig‘i bilan **Islomov Bobir Husnidinovichni** “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ boshqaruv raisining Elektr tarmoqlaridan foydalanish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari lavozimiga tayinlash choralarini ko‘rilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga Jamiyat Ustavining 7.4-bandida aksiyadorlar umumiyligiga yig‘ilishining vakolat doirasini belgilab o‘tilgan. Unga ko‘ra, Jamiyat ijroiya organini tuzish, Boshqaruv raisi va a’zolarini lavozimiga tayinlash Jamiyat aksiyadorlarining umumiyligiga yig‘ilishi vakolat doirasiga kiritilgan masala hisoblanadi.

Yuqorida qayt etilganlarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasi hamda Jamiyat Ustavining 7.4-bandiga asosan “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning barcha ovoz beruvchi oddiy aksiyalari Yagona aksiyadori, **qaror qiladi:**

1. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJning Navoiy hududiy filiali direktori lavozimida ishlab kelayotgan **Islomov Bobir Husnidinovich** Jamiyat boshqaruv raisining Elektr tarmoqlaridan foydalanish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari etib tayinlansin.

2. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruv raisining Elektr tarmoqlaridan foydalanish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Islomov Bobir Husnidinovich bilan mehnat shartnomasini imzolash vazifasi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Kuzatuv kengashi raisiga yuklatilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya vazirining
o‘rinbosari**

 X. Mustafayev